



BOZOR VA TAVAKKALCHILIK.

Husanboyeva Mavluda Ulug'bek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs 25-20-guruh talabasi.

Abdug'aniyev Zafarbek

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17922114>

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti davrida tadbirkor kishi bilan har doim yonma-yon turadigan harakat bu tavakkalchilik bo'lib hisoblanadi. Tadbirkor kishi ko'pchilik hollarda oxirgi natijani bilmagan holda o'z mablag'ini sarflaydi, ya'ni ma'lum tavakkalchilikka asoslanishi haqida ma'lumot beriladi.

Abstract: In a market economy, an action that always accompanies an entrepreneur is risk-taking. In most cases, an entrepreneur spends his money without knowing the final result, that is, he is informed about the basis of a certain risk.

Аннотация: В рыночной экономике одним из действий, всегда сопровождающих предпринимателя, является принятие риска. В большинстве случаев предприниматель тратит свои деньги, не зная конечного результата, то есть он осведомлен об основе определенного риска.

Kalit so'zlar: Bozor, tadbirkor, jamg'arma, xaridor, sotuvchi, investitsiya

Keywords: Market, entrepreneur, fund, buyer, seller, investment

Ключевые слова: Рынок, предприниматель, фонд, покупатель, продавец, инвестиции

Tavakkalchilik bu- firmaning ko'zlangan maqsadiga erishish yo'lida u duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir. Real hayotda bozor sub'ektlari tomonidan qabul qilinadigan qaror noaniqliklar bilan bog'liq. Ma'lumki, to'g'ri qaror qabul qilishning asosiy sharti - bu axborot. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish deganda, to'liq axborot bo'lmasda qaror qabul qilish tushuniladi. Biror voqea yoki hodisa to'g'risida axborot to'liq bo'lmasa, qabul qilingan qaror salbiy oqibatlariga, ya'ni ma'lum yo'qotishlarga olib keladi. Ushbu yo'qotishlar tavakkalchilikni bildiradi. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda tavakkalchilik (yo'qotish) darajasini bilish, uni oldini olish uchun, tavakkalchilik darajasini kamaytirish uchun, chora tadbirlar ko'rishga imkon beradi. Noaniqlikka misol tariqasida jamg'arilgan pulni ishonchliroq bo'lgan bankka qo'yish yoki tavakkalchilik (yo'qotish ehtimoli ko'proq bo'lgan) yuqori bo'lgan, lekin shu bilan birga yuqori dividend olish mumkin bo'lgan tijorat fondlarga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilishni keltirish mumkin. Xuddi shunday noaniqlik





sharoitida iste'molchilar tomonidan ham, ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham, sotuvchi va xaridorlar tomonidan qaror qabul qilishga to'g'ri keladi va bu qabul qilingan qarorlar albatta, ma'lum darajadagi tavakkalchilik (yo'qotishlar) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Noaniqlik cheklangan resurslarni samarasiz taqsimlanishiga, ortiqcha sarflarga, vaqtni yo'qotishga olib keladi. Tavakkalchilikni o'lchash. Tavakkalchilikni o'lchashning asosi ehtimol tushunchasi bilan bog'liq. Amerikalik olim F.Nayt (1885-1974) ehtimolni ikki turga bo'ladi: matematik, ya'ni oldindan aniqlash mumkin bo'lgan ehtimol va statistik ehtimol. Birinchi tur ehtimolga tanganing raqam yoki gerb tomonini tushish ehtimoli 1 2 ga tengligi yoki o'ynaydigan olti qirrali toshning oltita raqamidan bittasini tushishi ehtimolining 1 6 ga tengligi misol bo'lishi mumkin. Ikkinchi turdagi ehtimolni empirik, ya'ni faraz qilish yo'li orqali aniqlash mumkin. Masalan, korxonaga xom ashyoni vaqtida yetib kelmaslik ehtimoli faraz qilinganda, ushbu faraz qilingan raqam baholovchining bilimiga tajribasiga asoslanadi. Nima uchun deganda, ushbu voqeaning takrorlanishi to'g'risida statistik ma'lumotlar yo'q. ehtimol sub'ektiv ravishda aniqlanganda, bitta hodisani har xil insonlar har xil qiymatdagi ehtimol bilan baholaydi.

Birinchi turdagi ehtimolni ob'ektiv ehtimol desak, u iqtisodiyotda kamroq uchraydi, ikkinchi turdagi ehtimol sub'ektiv ehtimol bo'lib, biznesga xosdir. Ham ob'ektiv va ham sub'ektiv ehtimollar tavakkalchilik darajasini ifodalashda va tanlashda foydalaniladi. Ob'ektiv ehtimol o'rtacha qiymatni aniqlashga yordam bersa, sub'ektiv ehtimol olinishi mumkin bo'lgan natijalarning o'zgaruvchanlik mezonini aniqlashga yordam beradi. Tavakkalchilikni miqdoriy aniqlash uchun biror voqea yoki hodisaning olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini va bu oqibatlarining ehtimolini bilish kerak bo'ladi. Kutiladigan miqdor- bu mumkin bo'lgan barcha natijalarning o'rtacha o'lchangan qiymatlari. Bu yerda har bir natijaning ehtimoli ushbu mos qiymatlarning takrorlanish chastotasi yoki o'lchovi. $E(X) = (N1 * Kn) + (N2 * Km)$ bunda, $N1$ - natijagaga erishish ehtimoli, Kn - daromadning yuqori chegarasi, $N2$ - kutilmagan ehtimol, Km - natijaning quyi chegarasi. Masalan, korxonaga yangi mahsulot ishlab chiqarmoqchi, agar korxonaning yangi mahsuloti bozorda muvaffaqiyatga erishsa, har bir aktsiyaga 1000 so'm olish mumkin, agar muvaffaqiyatga erishmasa, bir aktsiya uchun 100 so'm olinadi. Korxonaga mahsulotining bozorda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli 0,6 ga teng bo'lsa, kutiladigan dividend qiymati quyidagicha aniqlanadi: $E(X) = (N1 * Kn) + (N2 * Km)$ bunda, $N1$ - natijagaga erishish ehtimoli, Kn - daromadning yuqori chegarasi, $N2$ - kutilmagan ehtimol, Km - natijaning quyi chegarasi. $640 \cdot 1004,010006,0) (= + = X \text{Eso'm/aktsiya.}$ CHetlanish- bu haqiqiy natija bilan






kutiladigan natija o'rtasidagi farq bo'lib, u tavakkalchilikdan (yo'qotishdan) darak beradi. Ushbu farq qancha katta bo'lsa yo'qotish, ya'ni tavakkalchilik ham shuncha yuqori bo'ladi. Masalan, sizni ishga joylashishingiz uchun ikki variant mavjud. Birinchisi, xususiy korxonada ishlash bo'lsa, ikkinchisi- davlat korxonasida. Xususiy korxonada ishlasangiz daromadingiz, korxonada muvaffaqiyatli ishlasa, bir oylik ish haqingiz 6000 so'mni, muvaffaqiyatsizroq ishlasa, aytaylik 3000 so'mni tashkil qilsin. Davlat korxonasida ishlasangiz ish haqi 4510 so'm, korxonada to'liq ishlamaganda beriladigan ish haqi - 3510 so'm. Xususiy korxonaning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsizlik ehtimollari bir xil bo'lib, 0,5 ga, davlat korxonasidiki mos ravishda 0,99 va 0,01 ga teng deylik. quyidagi jadvalda mumkin bo'lgan natijalar va ularning ehtimoli keltirilgan.

Investitsiya va tavakkalchilik

Tadbirkor ishining rivoji investitsiya talab qiladi. Investitsiya bironta ishga mablag' qo'yish orqali foyda olishni bildiradi. Hamma mablag'lar pulga chaqilgan holda investitsiyalanadi. Bu jihatdan investitsiya 2 ga bo'linadi: Birinchisi, mablag'ni to'g'ridan to'g'ri investitsiyalash, ya'ni uni korxonada ishga kapital sifatida qo'yish. Ikkinchisi, mablag'ni korxonalar aksiyalarini sotib olishga sarflash bo'lib, portfel investitsiyalar deb ataladi. Investitsiyalash muqobil tanlov qoidasiga asoslanadi, ya'ni investitsiyalashning eng naflisi, serfoydalisi tanlab olinadi. Tadbirkorlik ishida tavakkalchilikni kamaytirish uchun investitsiya bir vaqtning o'zida bir necha sohaga yo'naltiriladi. Bu bilan bir yerda ko'rilgan zararni boshqa joyda ko'rilgan foyda bilan qoplash mumkin. Bunday jarayon iqtisodiyotda Diversifikatsiyalashgan investitsiya deb ataladi. Investitsiyaning samaradorligi uning foydalilik darajasi bilan belgilanadi. Mablag'ni investitsiyalashda uning tezda qaytim berishi, o'zini tez oqlashi hisobga olinadi. Buning uchun rentabellik hisoblab chiqiladi. Masalan, 10 million so'm investitsiyalashdan oldin turli muqobil usullar o'zaro solishtiriladi, aytaylik, bu pul har yili tikuvchilik ishida 2 million so'm foyda bersa, o'zini 5 yilda oqlaydi. Agar qurilish sohasida 1 million so'm foyda bersa, o'zini 10 yilda oqlaydi. Bunda albatta birinchi usul tanlanadi. Investitsiya samaradorligini oshirish uchun quyidagilar talab qilinadi: Birinchidan, investitsiya keltiradigan foyda bank beradigan foizdan katta bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lmasa, o'z bo'lib pulni investitsiyalagandan ko'ra, bankka qo'yib, bema'lol foiz olib yotish qulay. Masalan, bank foizi yiliga 8 % bo'lsa, investitsiyadan keladigan foyda bundan ortiq, ya'ni 10-12 % bo'lishi kerak. Ikkinchidan, investitsiyadan keladigan foyda inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi talab qilinadi. Agar yillik inflyatsiya darajasi 7 % bo'lsa-yu, investitsiya beradigan foyda normasi 5 % bo'lsa, zarar





ko'riladi. SHuning uchun foydaning o'sishi inflyatsiya shiddatidan yuqori bo'lishi kerak. Uchinchidan, Investitsiya eng yuqori foyda normasini ta'minlaydigan sohalarga qo'yilishi lozim. Investitsiya yo'li tanlanganda foyda normasining pasayishiga moyil bo'lishi nazarda tutiladi. Foyda miqdorini kamaytirmaslik uchun olingan foydani qaytadan pul topish uchun kapital sifatida sarflash reinvestitsiyadeyiladi. Masalan, 100 mln. so'm investitsiya hozir 10 mln. so'm foyda beradi. Demak foyda normasi 10 %. 3 yildan so'ng foyda normasi 8 % ga tushib qolsa. 100 mln. dan 8 mln. so'm foyda ko'rilib, foyda miqdori 2 mln ga kamaygan bo'ladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun 3 yilda ko'rilgan 30 mln so'mni reinvestitsiya qilib, umumiy kapital 130 mln so'mga yetkaziladi. Bunda foyda normasi 8 % ga tushganda ham 10,4 mln so'm foyda ko'riladi. $R = 130 * 8 / 100 = 10.4 \%$ Ma'lumki, kapitalning narxi xizmat qilish davrida undan olinadigan diskontirlangan daromadlarning yig'indisiga teng. Agar olinadigan daromadlar aniq bo'lsa ushbu narxni hisoblash mumkin. Agar kelajakdagi daromadlar noaniq bo'lsa, u holda tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Aktivlar - bu mablag' bo'lib, u o'z egasini to'g'ridan-to'g'ri to'lov (foyda, dividendlar, renta va boshqalar) va yashirin to'lov (firma qiymatining oshishi, ko'chmas mulkning oshishi, aksiyalar va boshqalar) shaklidagi pul tushumlari bilan ta'minlaydi. SHuning uchun ham aktivlarning qaytim normasi (inflyatsiya hisobga olinmaganda) barcha pul tushumlarining sotib olingan aktiv narxiga nisbati bilan aniqlanadi: $R = D + (K_1 - K_0) / P = D + DK / P$, (1) bu yerda R- qaytim normasi; D- dividend; $DK = K_1 - K_0$ - kapital ortimi; P- sotib olingan aktiv narxi. Aktivlar ikki turga bo'linadi: tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan aktivlar va tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lmagan aktivlar. Birinchisini tavakkalchilik aktivi, ikkinchisi tavakkalchiliksiz aktiv deb qabul qilamiz. Tavakkalchiliksiz aktivlar degandaqiymati oldindan ma'lum bo'lgan pul tushumlarini beruvchi aktivlar tushuniladi. Tavakkalchilik aktivlari- bu shunday aktivlarki, ulardan tushadigan daromadlar qisman tasodiflar bilan bog'liq. SHuning uchun ham tavakkalchilik aktivlari narxi tavakkalchiliksiz aktivlar narxidan past bo'ladi. Har bir kapital qo'yuvchi ikki variantdan birini tanlashi kerak bo'ladi: tavakkalchilik operatsiyalari bilan bog'liq bo'lganda yuqori foyda olish (bu yerda nafaqat olinadigan foydadan, balki qo'yilgan kapitaldan ham ajralish xavfi bor), yoki tavakkalchiliksiz operatsiyalar bilan bog'liq variantni tanlab past foyda olishga rozi bo'lish. O'zbekistonda davlat zayomlarini sotib olish tavakkalchiliksiz operatsiya hisoblanadi. Tavakkalchilikka har xil munosabatda bo'lgan ikki kishining mablag' quyishini ko'rib chiqaylik. Birinchi kishini Adeb, ikkinchi kishini Bdeb belgilaylik. A shaxs tavakkalchilikka borishga moyil emas, shuning uchun ham u kamroq, lekin barqaror foyda beradigan davlat zayomini





sotib olishga qaror qiladi. B shaxs tavakkalchilikka moyil bo'lgani uchun muvaffaqiyatli ishlayotgan kompaniyaning aktsiyasini sotib oladi. Ularning olishi mumkin bo'lgan foyda va tavakkalchilik 8.6-rasmda keltirilgan. Ashaxs tavakkalchilikka moyil bo'lmagani uchun, uning befarqlik egri chizig'i UAbyudjet chizig'ini E Anuqtada kesib o'tadi. Ashaxs kichik 'larni qo'yishda tavakkalchilikni kamaytirish usullaridan biri «Portfel diversifikatsiyasi» dir. Bu usulga ko'ra investitsiyalarni tavakkalchilik bilan bog'liq bir necha aktivlarga taqsimlash orqali tavakkalchilikni pasaytirishga erishiladi. «Portfel diversifikatsiyasi» muammosi bo'yicha qilgan ishlari uchun amerikalik iqtisodchi olim Jeyms Tobin (Yel universiteti) 1981 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Undan «Sizga nima uchun Nobel mukofoti berildi?» deb so'rashganda, u «Barcha tuxumlarni bitta savatga qo'yish mumkin emasligini isbotlaganim uchun menga ushbu mukofotni berishdi», - deb javob qilgan edi. Tavakkalchilikni (yo'qotishlarni) pasaytirish Tavakkalchilikni pasaytirishning quyidagi turlari mavjud: diversifikatsiya, sug'urtalash, tavakkalchilikni taqsimlash, axborot izlash. Kapital mablag'larni qo'yishda tavakkalchilikni kamaytirish usullaridan biri «Portfel diversifikatsiyasi» dir. Bu usulga ko'ra investitsiyalarni tavakkalchilik bilan bog'liq bir necha aktivlarga taqsimlash orqali tavakkalchilikni pasaytirishga erishiladi. «Portfel diversifikatsiyasi» muammosi bo'yicha qilgan ishlari uchun amerikalik iqtisodchi olim Jeyms Tobin (Yel universiteti) 1981 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Undan «Sizga nima uchun Nobel mukofoti berildi?» deb so'rashganda, u «Barcha tuxumlarni bitta savatga qo'yish mumkin emasligini isbotlaganim uchun menga ushbu mukofotni berishdi», - deb javob qilgan edi. Diversifikatsiya usulidatavakkalchilik bir necha tovarlarga taqsimlanadi, ya'ni biror tovarni sotish (sotib olish) yuqori tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lishi boshqa bir tovarni sotishdan (sotib olishdan) bo'ladigan tavakkalchilikni kamaytirishga olib keladi. Masalan, biror firma ikki xil mahsulot ishlab chiqaradi. Ma'lumki, bir vaqtning o'zida ikkala mahsulot turiga bo'lgan talabning kamayib ketish ehtimoli, ulardan bittasiga bo'lgan talabni kamayib ketish ehtimolidan yuqori. Ko'p hollarda bir turdagi mahsulotga bo'lgan talab kamayganda ikkinchi turdagi mahsulotga bo'lgan talab oshadi.

Tavakkalchiliklarni sug'urtalash- ushbu usul tasodifiy yo'qotishlarni o'zgarmas xarajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan. Ma'lumki, mulkning o'g'irlanishi, shaxsning kasal bo'lib ishga chiqmasligi, tabiiy ofatlarning bo'lishi tasodifiy bo'lib, ular juda katta xarajatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu noxush hodisalarning oqibatlarini kamaytirishda sug'urtaning ahamiyati katta. Bu yo'l tanlanganda, sug'urta badali kutiladigan





foydadan ma'lum darajada kamroq bo'lishi lozim. Aks holda zarar ko'rishi mumkin. Masalan, firma 5 million so'm kapital sarflab, 500 ming so'm foyda kutsa, sug'urta puli 300 ming so'm bo'lishi kerak. SHunda biror kor xol yuz berganda firma 200 ming so'm foyda ko'radi. Agar sug'urta puli foydani yo'qqa chiqarsa, xatar saqlanib qoladi. O'zbekistonda ham hozirgi vaqtda ko'pgina insonlar o'z hayotlarini, mulkini sug'urtalaydilar. Sug'urta ishlarini yo'lga qo'yish uchun respublikada maxsus qonunlar ishlab chiqilgan va bir qator davlat va nodavlat sug'urtalash firmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Sug'urtalashda tavakkalchilikni qo'shish samaradorligi shu bilan belgilanadiki, sug'urtalangan shaxslarning tavakkalchiligi bir-biriga bog'liq bo'lmasligi kerak. Tavakkalchilikni taqsimlash-ushbu usulga ko'ra zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik bilan qatnashuvchi sub'ektlar o'rtasida shunday taqsimlanadiki, oqibatda har bir sub'ektning kutiladigan yo'qotishi nisbatan kichik bo'ladi. Bunda shirkat firmalari tashkil etilib, uning kapitali bir necha sheriklarga qarashli bo'ladi. Masalan, CHinni zavodi qurish uchun 5 mlrd so'm kerak. SHu pulni 5 ta sherik birgalikda qo'yadi. Kutiladigan yo'qotish 500 mln. so'm . Agar zavodning egasi 1 ta bo'lganda hamma yo'qotish uning zimmasiga tushgan bo'lar edi. Zavod sheriklarniki bo'lganligi uchun bu summa 5 kishiga bo'linadi. Demak, sherikchilik kapitali tavakkalchilikning taqsimlanishiga va uni har bir sherikka tushadigan yukini yengillashtirishga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kutiladigan daromad berilganda, u tavakkalchilik bilan bog'liq natijalarga nisbatan, kafolatlangan natijani ustun ko'radi. Agar tavakkalchilikka qarshi insonni iste'molchi deb qarasa va u oladigan daromadiga iste'mol tovarlar majmuasini sotib olib, uni iste'mol qilishdan ma'lum darajada naf oladi deb faraz qilsak, biz iste'molchining tavakkalchilik bilan bog'liq daromadining naflik darajasi bilan qanday bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin (8.1-rasm). Tavakkalchilikka qarshi inson daromadi past darajadagi chekli naflikka ega ekanligini ko'ramiz. Rasmdan ko'rish mumkinki, har bir birlik qo'shimcha daromadga to'g'ri keladigan qo'shimcha naflik daromad oshishi bilan kamayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov R.X., Salimov B.T., Xodiev B.YU. Mikroiqtisodiyot. -T.: SHarq, 2001.
2. Konyuxovskiy P.V. Mikroekonomicheskaya modelirovanie v bankovskoy deyatelnosti. Moskva, Xarkov, Minsk, 2001.
3. Faltsman V.K. Osnovo' mikroekonomike. - M.: TEIS, 2000.
4. Uchebno'ematerialo'poMikroekonomikeOn-line
<http://www.ic.omskreg.ru/~econrus/win/library/3/37/371/3713/table.htm>

